

ONALIK ARXETIPI VA ZAMONAVIY ONALAR OBRAZIDAGI XARAKTER DINAMIKASI

Achilova Gulhayo Ismoilovna

Toshkent davlat transport universiteti, tayanch doktoranti

guliachilova9@gmail.com

Annotatsiya

Maqola onalik arxetipining nazariy ildizlarini va zamonaviy adabiyotda ona obrazining o'zgaruvchan xarakterini tahlil qiladi. Jung, Neumann, Clarissa Pinkola Estés va Marina Warner qarashlari fonida “Buyuk Ona” arxetipi izohlanadi. Zamonaviy nasrda arxetipdan og'ish, ijtimoiy bosim, yolg'izlik, migratsiya va qashshoqlik kabi omillar ona ruhiyati va munosabatlariga qanday ta'sir qilishi misollar bilan ko'rsatiladi (Amy Tan, Salomat Vafo, Javlon Jovliyev, Chimamanda Ngozi Adichie). Psixologik o'zgarishlar bevosita/bilvosita tasvir, ichki monolog, retrospektiva va detal orqali tahlil qilinadi. Xulosa sifatida onalik idealining statik modeli yemirilgani, o'rniga ko'p qirrali va dinamik psixologik portretlar paydo bo'lgani asoslanadi.

Kalit so'zlar: onalik arxetipi, Buyuk Ona, badiiy psixologizm, ichki monolog, xarakter dinamikasi, narrativ empatiya, migratsiya.

Karl Gustav Yungning arxetiplar nazariyasida “ona” timsolini kollektiv ongsizlikdagi eng qudratli shakllardan biri sifatida talqin qiladi. Bu timsol himoya, g'amxo'rlik, hayotni davom ettirish kabi tushunchalarni mujassam etadi. Shu bilan birga lekin u doimo ikkiyoqlama xususiyatga ega: mehr bilan birga bo'g'uvchi nazorat, g'amxo'rlik bilan birga halokatga yetaklovchi kuch sifatida ham tasvirlanadi. (Yung, 1959). “Buyuk Ona” shu ikki tomonlama xususiyat markazida

turadi. Bir paytning o'zida u yaratadi va asraydi, lekin shuningdek o'zlashtiradi va cheklaydi ham.

Nyumann onalikni “ijodiy manba” va “qayta tug'ilish makoni” sifatida talqin qiladi: matriarxal miqlar tuzilmasida ona hayot aylanishini boshqaruvchi kosmologik markazga aylanadi. Shu bois “Buyuk Ona” obrazi ham yaratadi, ham cheklaydi, ham mehr beradi. (Neumann, 1955). Bu ambivalentlik zamonaviy matnlarda onaning kundalik qarorlarida seziladi: himoya qilish istagi ko'pincha farzand mustaqilligini cheklaydi, parvarish esa nazorat tusini oladi. Klarissa Pinkola Estes folklor va afsonalardagi onalik kuchini jarohat va bitish sikli bilan bog'laydi. U “yovvoyilik” deb atagan ichki energiyani sezgi, himoya va tiklanish quvvatining ildizi sifatida ko'rsatadi (Estés, 1992). Adabiy sahnada bu kuch mayda, tanaga yaqin detallar orqali paydo bo'ladi: allaning ohangi, qo'ldagi titroq, uydagi hidlar, pardadagi mayin shivir — barchasi onaning og'riqdan kuch topish jarayonini eshittiradi. Jarohat o'sishga, charchoq esa hushyorlikka aylanadi. Marina Uorner nasroniy sanamlarda, xususan, Maryam timsolida onalikning qanday mukammallashtirilgani va bu “mukammal ona” modeli ijtimoiy nazorat mexanizmlari bilan qanday tutashishini tahlil qiladi (Warner, 1976; 1994). Ideal timsol tasvirlangani sari, real ayollarning ko'p qirrali tajribasi ko'pincha nazardan chetda qoladi. Adabiyot mana shu e'tibordan chetda qolgan sohani ochadi: rasmiy timsolga to'g'ri kelmaydigan, ammo haqiqiy hayotda uchraydigan ichki holatlarni so'zlaydi.

Qadimiy manbalardan Injil hikoyalari, Sharq va G'arb folklori, afsona va miqlar onalikni baraka va xavf o'rtasidagi nozik chiziqda talqin qiladi. Ismoil–Hojar, Maryam–Iso rivoyatlari, o'zbek ertaklaridagi “ona duosi/onasiz qolish” motivlari, yunon miqlaridagi Demetra–Persefona syujeti bunga misol. Zamonaviy adabiyot bu arxetipni onalik idealining qotib qolgan shakli o'rniga shaxsiy tajriba va ijtimoiy reallik bilan to'yingan murakkab psixologik portretlar orqali o'zgartiradi.

Zamonaviy nasrda ko'pincha onalikning “muqaddas niqoblari” yechiladi. Ona endi faqat rol yoki vazifa emas, balki u shaxsiy iztirob, ikkilanish va bosimlar

ichida yashaydi. Iqtisodiy tanglik, migratsiya, er-xotin munosabatlaridagi uzilish, “me’yor” haqidagi mahalla va qarindoshlar nigohi ruhiyatga ta’sir qiladi. Buni zamonaviy matnlarda ochiq ko’rish mumkin. Emi Tenning “Ikki xil” (“Two Kinds”) hikoyasida muhojir ona orzulari bilan qizning mustaqil bo’lish istagi to’qnashadi va tarbiya nazorat vositasiga aylansa, Salomat Vafo “Muqaddas manzil”ida bosim ostidagi onaning ichki holati, gunohdan dunyoga kelgan farzandning ham ne’mat, ham kishan sifatida qabul qilinib, oxiri ruhiy tanazzulga olib kelishi tasvirlangan. Javlon Jovliyev “Ayol” hikoyasida e’tiborsiz jamiyat qarshisida yolg’iz turgan onaning ezilishi, qadrsizlanishi, “jim qarshilik” qilishini ichki monolog va kesik replikalar bilan chizadi. Chimamanda Ngozi Adichi “Imitation”da esa muhojirlik fonida onalik, o’zini qadrlash va nikohdagi ikkiyuzlamachilik o’rtasidagi og’riqli muvozanat ko’rsatiladi. Bu matnlarda onalik nafaqat g’amxo’rlik, mehr, fidoyilik, balki shaxsiyatni izlash, tanlov va yo’qotish o’lchovida ham baholanadi.

Zamonaviy matnlarda onaning xarakter dinamikasi uch bog’liq chiziqda ochiladi. Birinchisi ichki chiziq: qo’rquv, aybdorlik, o’zini oqlash va ongli mas’uliyat bosqichlari orqali onaning ichki ovozi shakllanadi. Ikkinchisi munosabat chizig’i: ona–bola yaqinligi, masofa, nazorat va ishonch muvozanati qayta quriladi. Uchinchisi ijtimoiy chiziq: jamiyatning “yaxshi ona” haqidagi me’yorlari real imkoniyatlar bilan to’qnashadi va qahramonning tanlovlarini toraytiradi yoki kengaytiradi. Shu uch chiziq kesishgan nuqtalarda keskin burilishlar yuz beradi: himoya qilish istagi mustaqillikka yo’l berish bilan almashadi; fidoyilik toliqish bilan to’qnashadi; sevgi g’azabni yutadi yoki aksincha, g’azab sevgi ichiga singib ketadi.

Zamonaviy adabiyotda ona obrazi jamiyatdagi gender me’yorlarini ko’rsatib beradigan “oyna” vazifasini ham bajaradi. Javlon Jovliyevning “Ayol” hikoyasida ayolning mehnati qadrsizlanishi va ayolning yelkasiga nihoyatda og’ir yukning yuklab qo’yilgani ko’rsatilsa, Jumpa Lahirining “Jannat-do’zax” (“Hell-heaven”) hikoyasi muhojir ayolning mezbon jamiyatga kirishishidagi qiyinchiliklari, irqiy notenglik va avlodlararo to’qnashuvni ko’rish mumkin. Onalik bu yerda faqat

biologik vazifa emas, balki ijtimoiy bosim, madaniy odatlar va shaxsiy ruhiy holatning kesishgan joyida shakllanadigan murakkab tajribadir. Mehnat bozoridagi holatlar, jamiyatning “yaxshi ona” haqidagi me’yorlari, shaxsiy qo’rquv va kuch barchasi bir sahifaga joylanadi. Sovib qolgan choy, oynadgi quyosh aksi, musichalar, siniq idishlar, beshik kabi kichik detallar katta ma’no kasb etadi. Bu detallar orqali muallif onaning ichki holatidagi charchoq, xavotir, aybdorlik, umid kabilarni so’zsiz ko’rsatadi va matn o’quvchiga gapirishdan ko’ra ko’proq “ko’rsatadi”. Qisqacha aytganda, zamonaviy kontekst onalikni “bitta muqaddas obraz” sifatida emas, balki sharoit, me’yor va shaxsiy tajribalar kesishmasida shakllanadigan tirik jarayon sifatida ko’rsatadi. Matn esa shu murakkablikni kichik detallar, aniq vaziyatlar va mos bayon strategiyalari orqali o’quvchiga yaqinlashtiradi.

Xulosa qiladigan bo’lsak, ona arxetipi zamonaviy hikoyalarda o’zgarmas ideal obraz emas. Yozuvchilar onalikni jamiyat, tarix, psixologiya va shaxsiy iztiroblar kesishgan vaziyatlarda tasvirlaydilar. Ichki monolog, bilvosita detal, ijtimoiy fon va ruhiy evrilishlar uyg’unlashganda zamonaviy nasr o’quvchini nafaqat hamdardlikka, balki “me’yor” haqida qayta o’ylashga chorlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jung C. G. The Archetypes and the Collective Unconscious. – Princeton: Princeton University Press, 1959.
2. Neumann E. The Great Mother: An Analysis of the Archetype. – Princeton: Princeton University Press, 1955.
3. Estés C. P. Women Who Run with the Wolves: Myths and Stories of the Wild Woman Archetype. – New York: Ballantine Books, 1992.
4. Warner M. Alone of All Her Sex: The Myth and the Cult of the Virgin Mary. – New York: Knopf, 1976.
5. Warner M. From the Beast to the Blonde: On Fairy Tales and Their Tellers. – London: Vintage, 1994.

6. Cohn D. Transparent Minds: Narrative Modes for Presenting Consciousness in Fiction. – Princeton: Princeton University Press, 1978.
7. Phelan J. Living to Tell About It: A Rhetoric and Ethics of Character Narration. – Ithaca: Cornell University Press, 2005.
8. Zunshine L. Why We Read Fiction: Theory of Mind and the Novel. – Columbus: The Ohio State University Press, 2006.